

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O. SH. Bazarov

2024 yil

Ro'yatga olindi № 09/02/037

"27 iyun" 2024 yil

DEHQONCHILIK VA O'SIMLIKSHUNOSLIK

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	– Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810400	– Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash

“Dehqonchilik va o‘simlikshunoslik” fan dasturi

Fan (modul) kodi DHO-SEB2304	O‘quv yili 2024-2025	Semestr IV	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Tanlov	Ta‘lim tili o‘zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim	Jami yuklama soati 4
Dehqonchilik va o‘simlikshunoslik	60	90	150

2 Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – dehqonchilik va o‘simlikshunoslikga oid zamonaviy bilimlarni, sug‘oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, sug‘orilishning ishtiqlik usullari qishloq xo‘jaligi mutaxassislariga qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda resurstejamkor, innovatsion agrotexnologiyalarni hamda fan yutuqlari va ilg‘orlar tajribasini o‘rgatish, olgan bilimlarni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, dehqonchilikning ilmiy asoslarini, sug‘oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, yerga ishlov berish jarayonlari uchun zarur bo‘lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko‘maklashish; dehqonchilikning ilmiy asoslari kabi dolzarb masalalarni ochib berish; qishloq xo‘jalik ekinlarini suv rejimi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, data ekinlarining biologiyasi, shakllanish sharoiti, ekinlarning fotosintetik faoliyati, yetishtirish texnologiyasining tuproq-iqlim sharoitiga bog‘liqligi, fan va texnika yutuqlarini xosiyatli agrotexnologiyalar bilan bog‘lashni, mahalliy sharoitda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilishdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-modul. Dehqonchilik

1-mavzu. Dehqonchilik fanining maqsadi, vazifasi, ilmiy asoslari va rivojlanish istiqbollari. Tuproq unumdorligi va madaniy tigi.

Fanning maqsadi, vazifasi va rivojlanish tarixi. O‘zbekistonda dehqonchilikning hozirgi kundagi holati, muammolari va ularni hal qilish yo‘llari. Dehqonchilikni rivojlantirishda olimlarning roli. O‘simliklarning hayot omillari va ilmiy dehqonchilikning qonunlari. Madaniy o‘simliklarning yorug‘lik, harorat, havo, ozuqa va suvga bo‘lgan talabi. Tuproq-tirik organizmlarning yashash muhiti. Tuproq hosil bo‘lishida bevosita qatnashuvchi omillar va sharoitlar. Ularning tarkibi, mohiyati va ahamiyati. Tuproq hosil bo‘lish jarayonining ifodasi.

2-mavzu. Tuproqning agrofizik xossalari, suv, havo rejimlari va ularni boshqarish usullari.

Tuproqning agrofizik xossalari va ularning dehqonchilikdagi ahamiyati. Tuproq strukturasi va uning ahamiyati. Tuproq strukturasi buzuvchi omillar uni oldini olish. Tuproq strukturasi tiklash usullari. Haydalma qatlam tuzilishi. Tuproq tuzilishining o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri. Haydalma qatlam tuzilishi yaxshilash

usullari. Tuproqning suv, havo rejimlari va ularni boshqarish usullari. O‘simlik hayotida va tuproqda suv va havoning ahamiyati. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun talab talab qilinadigan suv, havoning miqdori. Tuproqdagi namlikning asosiy manbalari, suv shakllari. Tuproqning suv xossalari (nam sig‘imi, suv o‘tkazuvchanligi, suv ko‘taruvchanlik ko‘taruvchanlik qobiliyati, suv bug‘latish xususiyati). O‘simliklarning transpiratsiya koefitsiyenti. Suv rejimini boshqarish usullari. Tuproqdagi namlikning asosiy manbalari, suv shakllari.

3-mavzu. Begona o‘tlar, ularning zarari va biologik xususiyatlari, biologik guruhlari va hisobga olish usullari. Begona o‘tlarga qarshi kurash choralarini.

Begona o‘tlar haqida tushuncha, ularning dehqonchilikka keltiradigan zarari va biologik xususiyatlari. Serurug‘ligi, urug‘lar unuvchanligini uzoq yillar davomida saqlanishi, urug‘larni har xil muddatlarda unib chiqishi. Moslashgan begona o‘tlar. Begona o‘tlarning ko‘payishi va tarqalish yo‘llari. Begona o‘tlar klassifikatsiyasi (biologik guruhlari). Oziqlanish usuliga qarab - parazit (tekinxur) va neparazit begona o‘tlar. Parazit begona o‘tlar (haqiqiy va yarim tekinxur) va ularning vakillariga tavsif. Neparazit begona o‘tlar. Kam yilliklar va ko‘p yilliklar, ularning vakillariga tavsif. Begona o‘tlarni hisobga olish. Begona o‘tlarni ko‘z bilan chamalab hisobga olish. Begona o‘tlarni aniq usulda hisobga olish. Dalalarni begona o‘tlar bilan ifoslanganlik xaritasini tuzish hamda kurash choralarini rejalashtirishda undan foydalanish.

Begona o‘tlarga qarshi kurash tadbirlari. Begona o‘tlar tarqalishini oldini oluvchi, qiruvchi va o‘tlarni yo‘qotishda kuzgi shudgorning ahamiyati. Agrotexnik, kimyoviy, biologik va boshqa kurash choralarini. Ekinlardan oldin va qator oralaridagi begona o‘tlarni yo‘qotish. Biologik kurash choralarini va almashlab ekishning ahamiyati. Gerbitsidlar klassifikatsiyasi. Qo‘llash usullari va muddatlari.

4-mavzu. Yerga ishlov berish, haydash usullari va sifati. Shudgor va uning turlari.

Yerga ekin ekishdan oldin va keyin ishlov berish.

Yerga ishlov berishning umumiy masalalari, maqsadi va vazifalari. Yerga ishlov berish qurollari va yerga mexanikaviy ta’sir etish. Yerni ishlashdagi texnologik jarayonlar: qatlamni ag‘darish, yumshatish, aralashtirish, zichlash, tekislash, egat, cheklar olish. Yerni asosiy ishlov qurollari. Haydash usullari: uzunasiga va aylama haydash. Yerni ishlov sifatiga ta’sir etuvchi omillar. Tuproqning texnologik xususiyatlari. Yerni haydash muddati, chuqurligi va agregat tezligi. Yerni yuza yumshatish. Yerni luschilik, chizel-kultivator, “zig - zag” borona, diskli borona, motiga kabi qurollar bilan yuza yumshatish. Yerni yuza yumshatish sifati. Shudgor, shudgor turlari va ularni amalga oshirish tizimi. Lalmikortikda toza shudgor-almashlab ekishning asosiy elementlari. Band shudgorni o‘tkazish muddatlari, chuqurligi. Yerni kuzda ikki yanasi shudgorlash. Haydash chuqurligini tabaqalashtirish. Haydalma qatlam qalinligi va uni oshirish usullari.

5-mavzu. Almashlab ekish.

Almashlab ekish, surunkasiga ekish va monokultura haqida tushuncha. Almashlab ekishning tarixi, rivojlanishi va uni joriy etish. Ekinlarni ilmiy asosda navbatlab ekilishi. Almashlab ekishning agrotexnik va tashkiliy - xo‘jalik hamda iqtisodiy jihatdan ahamiyati. Almashlab ekish klassifikatsiyasi va sxemasi, rotatsiyasi hamda rotatsiya jadvali. O‘tmishdosh ekinlarning ahamiyati, oraliq va siderat ekinlar.

6-mavzu. Dehqonchilik tizimi va organik dehqonchilik.

Dehqonchilik tizimi haqida tushuncha. Ibtidoy (primitiv), ekstensiv va intensiv dehqonchilik tizimlari. Dehqonchilik tizimining rivojlanish tarixi. Dehqonchilik tizimlarining tizimlarining tarkibiy qismlari. Almashlab ekish maydonlari va tizimlarini tashkil qilish. O‘g‘itlarni qo‘llash, yerni ishlov, begona o‘tlar, o‘simlik kasalliklari va zararkundalari, va zararkundalari, va zararkundalari.

zararkunandalarga, qurg' oqchilikka, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashning maxsus choralarini sug'orish va zax qochirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish. Organik dehqonchilik va uning ahamiyati. Dunyoda organik dehqonchilikning rivojlanishi Organik dehqonchilikni qo'llashda fan yutuqlari va ilg'or tajribalar. Organik dehqonchilikda begona o'tlarga qarshi kurash choralari. Organik dehqonchilikda almashlab ekish. Organik dehqonchilikda ekinlarni yetishtirish texnologiyalari.

7-mavzu. Sug'orish turlari va noo'suv davridagi sug'orishlar. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimi. Suv tejoyehi sug'oridish usullari va texnikasi. Sug'orish turlari: namitqiruvchi, namitqiruvchi-sho'r yuvish, maxsus, muntazam, nomuntazam, liman sug'orish, yalpi (yoppasiga) sug'orishlar. Noo'suv davridagi sug'orishlar: shudgordan oldin sug'orish, sho'r yuvish, nam to'plash maqsadida sug'orish, ekishdan oldin sug'orish, urug' suvi berish, provakatsion sug'orish, nam to'plash-o'g'itlash maqsadida sug'orish, sovuq urishiga qarshi sug'orish. Ekinlarni sug'orish rejimi tushunchasi. Sug'orish sxemalari. Sug'orish rejimiga ta'sir etuvchi omillar: iqlim, tuproq, gidrologik va xo'jalik sharoitlari, o'simliklarning biologik xususiyatlari. Bir galkik va mavsumiy sug'orish me'vori va uni hisoblash uslubiyati.

8-mavzu. Sho'rlangan tuproqlar ularning turlari, Tuzlar, ularni o'simliklarga ta'siri, o'simliklarning tuz ta'siriga chidamilligi. Tuproq eroziyasi, sel oqimi, ularni oldini olish va qarshi kurash tadbirlari.

O'zbekistonda tuproqlarning tarqalishi, ularni xossalari. Tuproqning sho'rlanganlik darajasi va tarkibiga ko'ra turlari. Sho'r tuproqlarni meliorativ holati va ularni baholash. Sho'rlangan tuproqlarda uchraydigan tuzlar. Sho'rroq va sho'rxoqsimon sho'r to'v va sho'r to'vli yerlar. Tuzlarning o'simliklarga ta'siri darajalari. Zararli va zararsiz tuzlar. Tuzlarni o'simliklarga ta'siri sabablari: a) bevosita tuproqlarning fizologik kurug'ligi, o'simliklarning mineral oziqlanishini buzishi, o'simliklarning zaxarlanishi; b) ishkoriylikni birdan ortib ketishi; v) sho'r to'blanish ta'siri. Qishloq xo'jalik ekinlarini tuz ta'siriga chidamilligi. Tuproqda tuzlarni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdori.

Suv va shamol eroziyasi. Tarqalish mintaqasi, vujudga kelish sabablari. Suv va shamol eroziyasini oldini olish va qarshi kurash tadbirlari. Sug'orish natijasida yuzaga keladigan irrigatsiya eroziyasi va uni oldini olish hamda qarshi kurash tadbirlari. O'zbekistonda sel oqimi tarqalgan hududlar. Sel oqimini paydo bo'lish sabablari. Sel oqimiga qarshi kurash choralari (agroc'mon, agromelioratsiya va gidrotexnik tadbirlar).

II-modul. O'simlikshunoslik

9-mavzu. O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlari.

O'simlikshunoslik fanining maqsad va vazifalari. O'simlikshunoslik ilmiy fan sifatida. O'simlikshunoslikning Respublikadagi ahvoli, istiqbollari. O'simliklarning kelib chiqish markazlari. Dala ekinlarning guruhlarga bo'linishi. Hozirning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

10-mavzu. Bug'doy biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.

Bug'doy ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Bug'doy yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy tashlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubini, me'vori, chuqurligi. Ekinni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubini: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

11-mavzu. Makkajo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Makkajo'xori ahamiyati, kelib chiqishi, tarixi, tarqalishi, hosildorligi. Biologik xususiyatlari, navlari va duragaylari, rivojlanish davrlari. Don va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubini, me'vori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubini: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

12-mavzu. Don - dukkakli ekinlarning umumiy tavsifi va biologiyasi. No'xat va ko'k no'xat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Don-dukakli ekinlar guruhiga mansub ekinlar tavsifi. Don-dukakli ekinlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Donning kimyoviy tarkibi, oqsil manbai sifatidagi ahamiyati, tuproqning unumdorligini oshirishi, biologiyasi, tashqi muhit sharoitlariga talabi, ekin maydoni va tarqalishi, hosildorligi.

No'xat ahamiyati, biologiyasi, tarqalishi, hosildorligi, rayonlashtirilgan navlar tavsifi. No'xatni sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirish texnologiyasi. Ekinni resurs tejamonkor texnologiyalarni qo'llash samaradorligi.

Ko'k no'xat ahamiyati, biologiyasi, tarqalishi, hosildorligi, rayonlashtirilgan navlar tavsifi. Ko'k no'xatni sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirish texnologiyasi. Ekinni parvarishlashda resurs tejamonkor texnologiyalarni qo'llash samaradorligi. Hosilni yig'ish.

13-mavzu. Yem-xashak o'tlar tavsifi. Dukkakli yem-xashak ekinlar ahamiyati. Beda biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.

Dukkakli yem-xashak o'tlarining ahamiyati va umumiy tavsifi, to'yimliligi, tuproq unumdorligini oshirishdagi o'rni. Beda - ahamiyati, ozuqalarining to'yimliligi, agrotexnik ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, urug' va pichan hosili. Sistematikasi, biologik xususiyati, navlari. Pichan va urug' olish uchun yetishtirish texnologiyasi. Hosilni yig'ish

14-mavzu. Tugunakmevali ekinlarning ahamiyati. Kartoshka - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Tugunakmevali ekinlar ahamiyati. Kartoshka - ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Kartoshkaning aynishi. Yetishtirish agrotexnikasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubini, me'vori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish.

15-mavzu. Paxtani yig'ib-terib olishga tayyorgarlik ko'rish va terish

Terim oldidan hosilni aniqlash va dalani paxta terimiga tayyorlash. Terim oldidan hosilni aniqlash metodikasi. Namunalarni olish yo'li, soni, namunadagi ko'rsatkichlar. Dalani paxta terimiga tayyorlash.

Paxta navlarining standartlari va etalonlari (1-nav, 2-nav, 3-nav va 4-nav) qo'lda va mashinada terilgan paxtani iflosligi va namligi. Defoliatsiya va desikatsiya o'tkazish. Dalani mashina terimiga tayyorlash. Hosilni mashinada va qo'lda terish. (soni va muddatlari). Mashinada kurak terish, to'kilgan paxtani mashina terish va tozalash. Paxta qop qanorsiz tashish va yuklash vositalari. Urug'lik paxtani terish paxtani quritish va tozalashni tashkil qilish.

III. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari.

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Tuproq agregatlarining suvga chidamilligini N.I. Savvinov usulida aniqlash
2. Haydalma qatlam tuzilishini aniqlash
3. Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash

<p>4. Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash</p> <p>5. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash</p> <p>6. Tuproqning texnologik xossalarni aniqlash</p> <p>7. Tuproqning namligini aniqlash</p> <p>8. Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlar</p> <p>9. Donli ekinlarning umumiy morfologiyasi. Bug'doy - turlari, morfologiyasi</p> <p>10. Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyati. No'xat va ko'k no'xat morfologiyasi va sistemmatikasi</p> <p>11. Dukkakli yem-xashak o'tlari morfologik belgilari, beda sistemmatikasi va morfologiyasi</p> <p>12. Tuganakmevalilar guruhilari. Kartoshka sistemmatikasi va morfologiyasi</p> <p>13. Moyli ekinlar guruhilari. Kungaboqar morfologiyasi</p> <p>14. Tamaki va maxorkaning morfologik xususiyatlari</p> <p>15. Paxtachilik. Go'zaning ildiz tizimi, go'za shoxlari va shoxlanish tiplari</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <p>1. Respublikamiz dehqonchiligining hozirgi xolati, muammolar va hal qilish yo'llari bo'yicha ilmiy maqolalar sharti.</p> <p>2. Tuproq unumdorligi va strukturasini yaxshilashga qaratilgan ilmiy maqolalar sharti.</p> <p>3. Tuproqning suv, havo issiqlik va oziq rejimlarini yaxshilash ilmiy maqolalar sharti.</p> <p>4. Begona o'tlarning tuproq-iklim sharoiti va ekinlar agrotexnikasiga bog'liq holda tarqalishi va ularga qarshi kurash.</p> <p>5. Sug'oriladigan yerlarda o'sadigan ashaddiy begona o'tlar.</p> <p>6. Ekin ekishdan keyin qator oralariga ishlov berish.</p> <p>7. Yerga asosiy ishlov berish usullarining tuproq xususiyatlari va o'simliklarni o'sishi hamda rivojlanishiga ta'siri.</p> <p>8. Yerni g'o'za va kuzgi bug'doy ekishga tayyorlash.</p> <p>9. Har xil tuproqlarda qatqaloq hosil bo'lish xususiyatlari va uni yo'qotish yo'llari.</p> <p>10. Bug'doy-g'o'za almashlab ekish tizimi.</p> <p>11. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonuni, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suvdan oqilona foydalanishga oid qarorlar.</p> <p>12. Suv taqchil sharoitlarda qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orishda suvdan tejimli foydalanish usullari (g'o'za, bug'doy, sholi, makkajo'xori va poliz ekinlari misolida)</p> <p>13. Mevali bog'lar va uzumzorlarda tomchilatib sug'orish usulini qo'llash.</p> <p>14. O'rta va kuchli shorlangan yerlarni o'zlashtirish texnologiyasi va ulardan samarali foydalanish yo'llari</p> <p>15. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosili va uning sifatiga ta'sir qiladigan omillar</p> <p>16. O'g'itilish tizimining biologik asoslari</p> <p>17. Ekinlarning fotosintetik faoliyati.</p> <p>18. Dala va yem-xashak ekinlarini yetishtirish texnologiyasi</p> <p>19. Dala va yem-xashak ekinlari qo'shib ekilganda biologik jihatdan mutanosibligi</p> <p>20. Hosilni dasturlash (shakllanishini boshqaruv)</p> <p>21. Kuzgi don ekinlarining nobud bo'lish sabablari</p> <p>22. O'zbekistonda ekiladigan yumshoq bug'doy navlarining ta'rifi</p> <p>23. Lalami yerlarda kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi</p> <p>24. Bahorgi bug'doyni yetishtirish texnologiyasi</p> <p>25. Arpaning yetishtirish texnologiyasi</p>	<p>26. Sholimi ko'chat usulida yetishtirish afzalliklari</p> <p>27. Javdar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>28. Tritikale biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>29. Suli biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>30. Makkajo'xori don-dukkakli ekinlar bilan qo'shib ekish texnologiyasi</p> <p>31. Makkajo'xori don-dukkakli ekinlar bilan qo'shib ekish texnologiyasi</p> <p>32. Yumshoq don sifatini, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>33. Burchuq don sifatini, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>34. Loviyaning navlari va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>35. Moshning navlari va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>36. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosili va uning sifatiga ta'sir qiladigan omillar</p> <p>37. Ko'p yillik qo'ng'irbosh o'tlarning ta'rifi</p> <p>38. Dukkakli yem-xashak o'tlarning to'yimligi, morfologiyasi va biologiyasi</p> <p>39. Qashqarbedaning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>40. Qizil sebaraning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>41. Xitoy loviyasi (Vigna) biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>42. Shabdard biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>43. Xantal biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>44. Raps biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>45. Tolali zig'irning morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>3 V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>-yerga ishlov berishning ilmiy asoslari to'g'risida;</p> <p>-sug'oriladigan yerlarni meliorativ rayonlashish;</p> <p>-mintaqadagi ekologik holat, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini hakida tasavvurga ega bo'lishi;</p> <p>-almashlab ekishni loyihalashtirish, joriy etishni;</p> <p>-tuzilarning o'simliklarga zararli ta'sirini kamaytirish tadbirlarini;</p> <p>-yerlarni melioratsiya qilish yo'llarini bilishi va ulardan foydalana olishi;</p> <p>-talaba yerga ishlov berish va ekinlarni ekishni sifatli o'tkazishi;</p> <p>-sug'oriladigan yerlarning shorlangan va botqoqlanishi, eroziyani oldini olish va unga qarshi kurash tadbirlarini qo'llash va ulardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p> <p>- dala ekinlarning biologiyasini shakllanish sharoiti, o'simliklarning kelib chiqish markazlari, ekinlarni fotosintetik faoliyati, dala ekinlarni intensiv usulda yetishtirish to'g'risida, fan va ilg'or ishlab chiqarish yutuqlarini joriy etish orqali samaradorligini baholash to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;</p> <p>- dala ekinlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, dala ekinlarni yetishtirishning bugungi kun holati va istiqbollari, ularni parvarishlash va yuqori hosil yetishtirish agrotexnologiyasi bilishi va ulardan foydalana olishi;</p> <p>- dala ekinlarini ekish, sug'orish, qishloq xo'jalik mashinalaridan, biologik va kimyoviy preparatlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <p>- dala ekinlarini ekish muddati, me'yori, sug'orish usullari va me'yorlarni aniqlash, qishloq xo'jalik mashinalaridan, biologik va kimyoviy preparatlardan foydalanish va ularni qo'llay olish hamda hosilni yig'ishtirib olish yuzasidan malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>
<p>4 VI. Ta'lim texnologiyalari va uslublari</p>	<p>4 VI. Ta'lim texnologiyalari va uslublari</p>

<ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar, • interfaol keys-stadlar, • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar 	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>5 joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriklarni bajarish, yakuniy nazorat buyicha yozma ishni Asosiy adabiyotlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Chandrasekaran B., Annadurai K., Somasundaram E. A textbook of Agronomy. New Delhi, 2010. New age International (p) Limited, Publi-shers. 2. Grop Rotation on Organic Farms: A Planning Manual, NRAES 177 Charles L. Mohler and Sue Ellen Johnson, editors Published by NRAES, July 2009. 3. Azimboyev S.A. Dehqonchilik, Tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. (Darslik). T. Iqtisodiyot-moliya 2006. - 180 b. 4. Mumimov K., Azimboyev A., Sanakulov A., Berdiyev YE., Kenjayev YU Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan. (O'quv qo'llanma) - T.: "Turon-iqbol", 2014. - 240 b. 5. Avlakulov M., Qarshiyev A.E. Dehqonchilik va melioratsiya. O'quv qo'llanma. Qarshi. 2021 y. 220 b. 6. Avlakulov M., Qarshiyev A.E. Dehqonchilik va melioratsiya. Darslik. Qarshi. 2022 y. 337 b. 7. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent-2018 y. Darslik. 25.5 b.t. 407-b. 8. Atabaeva X.H., Umarova H.C. Растениеводство. Учебник. ТамГУУ, Ташкент-2016. 380 с. 9. Atabaeva X.H., Qodirxo'jaev O. O'simlikshunoslik. Toshkent Yangi asr avlodi, darslik, 2006 (180 bet). 10. Muxammadjonov M. Zokirov Z. «G'o'za agrotexnikasi» o'quv qo'llanma Toshkent 1995, (286 b). 11. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2008 y., 420 b. 12. M. Azimova, N.Chorsharbiyev. O'simlikshunoslik. Uslubiy qo'llanma. Qarshi 2021 y., 121 b. 13. Teshayev Sh., Sulaymonov B. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016. 540 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 47 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 b.
--	--

<p>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda</p> <p>5. Умаров Э., Атабаева Х., Гумиров И.- Кормовые травы Средней Азии. Т 1990. Укув қўлланма 45 бет.</p> <p>6. Atabaeva X. Dala ekinlarini qo'shib ekish. O'quv qo'llanma, T. 1989, 55 b.</p> <p>7. Atabaeva X., Soya (Monografiya) T. O'z.Mil.Ensiklopediya. 2004 y. 70 b.</p> <p>8. Abdukanimov D. va bosh. Dehqonchilik asoslari va yem-xashak yetishtirish. T. Mehnat 1987. Darslik 288 bet.</p> <p>9. Azimboyev S.A., Axmurzayev Sh. Dehqonchilik, Tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. T. 2008. - 95 b.</p> <p>10. Xoliqov B. Yangi almashlab ektish tizimlari va tuproq unumdorligi. Noshirlik yog'dusi nashriyoti. Toshkent-2010 y. 120 b.</p> <p>11. Hamidov M., Raximboyev F. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi. Darslik T. 1996-320 b.</p> <p>Axborot manbaalari.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.FAO.data.stat.info.ru. 2. http://www.Research - Plant 6growing. 3. http://www.Research - Grain science. 4. http://www. Cereal crop production.com. 5. http://www.FAO.stat.report.2017 year. 6. www.zhyonet.uz. 7. www.lex.uz. 8. www.gov.uz. 9. http://www.icac.org. 10. http://www.grain.ru. 11. http://www.softon.ru 	<p>7 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>8 Fan/modul uchun ma'sullar: Hakimova.M.X.-"Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasi mudiri b.f.n, dotsent Pardayev.E.A.-"Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasi assistenti Taqrizchilar: Rajabov.T.T QMIU "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasi dotsenti, q.x.f.f.d. Meyliyev A.X. - Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, q.-x.f.d (DSc).</p>
---	---